



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

5. Uzbuild.uz. (2025, July 1). Mortgage market in Uzbekistan is growing again. Retrieved from <https://uzbuild.uz/en/news/mortgage-market-in-uzbekistan-is-growing-again-the-volume-of-loans-and-the-number-of-borrowers-have-increased-dramatically>
6. ResearchGate. (2024). Enhancing Housing Finance for Socio-Economic Stability in Uzbekistan. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/380574562>

“URBANIZATSIYA SHAROITIDA AHOLINING TRANSPORT TURINI TANLASH QONUNIYATLARI” (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)

J.Y. Jumaniyazov

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti doktorani

Anotatsiya

Ushbu maqola Urganch shahri misolida shahar aholisi transport turini tanlash qonuniyatlarini o'rganadi. Maqolada urbanizatsiya sharoitida jamoat va shaxsiy transport vositalari, barqaror harakatchanlik, ekologik jihatlar, aholi transportga bo'lgan ustuvorligi va aqlli transport tizimlarining roli tahlil qilinadi. Maqola shahar transport tizimini rivojlantirish va aholining kundalik harakatchanligini optimallashtirishga qaratilgan tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Аннотация

В статье исследуются закономерности выбора вида транспорта городскими жителями на примере города Ургенч. Анализируются общественный и личный транспорт, устойчивая мобильность, экологические аспекты, приоритет населения в транспорте и роль интеллектуальных транспортных систем в урбанизации. В статье также представлены рекомендации, направленные на развитие городской транспортной системы и оптимизацию повседневной мобильности населения.

Abstract

This article studies the patterns of urban residents' choice of transport mode using the example of the city of Urgench. The article analyzes public and private transport, sustainable mobility, environmental aspects, the priority of the population for transport and the role of intelligent transport systems in urbanization. The article

also includes recommendations aimed at developing the urban transport system and optimizing the daily mobility of the population.

Kalit soʻzlar

Urbanizatsiya, transport tanlovi, jamoat transporti, shaxsiy avtomobil, barqaror rivojlanish, aqlli transport tizimi (ITS), ekologiya

Ключевые слова

Урбанизация, выбор вида транспорта, общественный транспорт, личный автомобиль, устойчивое развитие, интеллектуальная транспортная система (ИТС), экология

Keywords

Urbanization, transport choice, public transport, private car, sustainable development, intelligent transport system (ITS), ecology

Kirish

Shaharlarning jadal urbanizatsiyasi va aholining harakatchanligining ortishi transport tizimlariga katta bosim yaratadi. Shahar transportining samaradorligi nafaqat aholining kundalik harakatlanishiga, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita taʼsir koʻrsatadi. Transport siyosatida barqaror harakatchanlikni taʼminlash va ekologik ifloslanishni kamaytirish muhim masalalardan biridir.

Asosiy qism.

Urbanizatsiya sharoitida aholi transport turini tanlash jarayoni bir nechta omillarning oʻzaro taʼsiri natijasida shakllanadi. Urganch shahri misolida bu jarayonni quyidagi jihatlar orqali batafsil tahlil qilish mumkin.

Shaharsozlik omillari. Shaharsozlik omillari aholining transport xatti-harakatini shakllantirishda asosiy roʻl oʻynaydi. Shaharsozlikning transport tanloviga taʼsir koʻrsatadigan besh asosiy omil: aholining zichligi, turli funksiyalar aralashmasi yoki landshaft va faoliyatlar kombinatsiyasi, shahar dizayni va tartibi, manzilga qulay kirish imkoniyati, hamda jamoat transporti va asosiy yoʻl tarmoqlariga yaqinlik. Ushbu omillar shahar aholisi transport vositalarini tanlashdagi xatti-harakatlari va harakatchanlik tendensiyalarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Urganch shahrining markaziy qismlarida aholining zich joylashuvi va funksional hududlarning

uyg'unlashuvi sababli, qisqa masofalarda piyoda yurish yoki jamoat transportidan foydalanish imkoniyati kengayadi. Shahar atrofidagi hududlarda esa past zichlik va yo'llarning yetarli rivojlanmaganligi shaxsiy transportga tayanishni oshiradi.[4]

Transport infratuzilmasi va jamoat transporti. Jamoat transporti tizimi shaharda yo'lovchi oqimi, marshrutlar tarmog'i va transport xarajatlari bilan belgilanadi. Urganchda mavjud avtobus va marshrut taksi tarmoqlari shahar markaziga kirishni ta'minlaydi, ammo shahar atrofidagi hududlarda xizmat sifati past, marshrutlar qamrov doirasi cheklangan. Shu sababli shahar markazidan uzoq hududlarda shaxsiy avtomobilga talab yuqori. Jamoat transportining samaradorligini oshirish uchun marshrutlar optimallashtirilishi, transport vositalari sifati va qulayligi yaxshilanishi, tarif siyosati ijtimoiy adolat asosida rejalashtirilishi zarur.

Barqaror harakatchanlik va atrof-muhitga ta'sir omillari. Barqaror harakatchanlik kontseptsiyasiga ko'ra, shaxsiy avtomobilga bo'lgan talabni kamaytirish, piyoda va velosiped harakatlanishini rag'batlantirish, shuningdek jamoat transportini qulay qilish asosiy maqsad hisoblanadi. Urganch shahri misolida piyodalar zonalarini kengaytirish, velosiped yo'laklari yaratish va shahar markazida avtomobil harakatini cheklash orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin. Bu nafaqat transport oqimining samaradorligini oshiradi, balki havoning ifloslanishini kamaytiradi, shuningdek aholining sog'lig'ini yaxshilaydi.[3]

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Aholining transport tanlovi yosh, jins, daromad darajasi, ish bilan bandlik, oilaviy tarkib, ta'lim darajasi va turmush tarzi kabi omillarga bog'liq. Masalan, yuqori daromadli oilalar shaxsiy avtomobilga ko'proq tayanadi, past daromadli guruhlar esa jamoat transportini tanlaydi. Shuningdek, yosh va faol ishchi aholi shahar markazida yashasa, qisqa masofalarga piyoda yoki velosiped bilan harakatlanish imkoniyatlari yuqori bo'ladi. Aholining ishga borish vaqti, sayohat maqsadi, qulaylik istagi transport tanloviga ta'sir qiladi. Urganch shahri misolida ishga va ta'lim muassasalariga qatnash vaqtining normativ chegaralari (30–40 daqiqa kichik shaharlarda, Toshkent va Moskva kabi yirik shaharlarda 1–2 soat) transport tizimining samaradorligini ko'rsatadi.[1]

Transport xatti-harakatini boshqarish va talabni shakllantirish. Shaharlar barqaror harakatchanligini ta'minlash uchun transport xatti-harakatini boshqarish choralari qo'llaydi. Bu choralar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Shahar markazlariga kirishni cheklash (masalan, pullik kirish zonalari);

Avtomobil parkovkalarini cheklash va tariflarni oshirish;

Jamoat transportini rivojlantirish va tariflarni arzonlashtirish;

Piyoda va velosiped yo'laklarini kengaytirish.

Transport turlari va ularning xususiyatlari:

Jamoat transporti: Avtobus, tramvay, trolleybus. Afzalliklari: arzon narx, ekologik toza, yo'llarning mavjudligi. Kamchiliklari: tirbandlik, qulaylik yetishmasligi, kutish vaqti.

Metro: Tezkor, tirbandlikka bog'liq emas, vaqtni aniq hisoblash mumkin. Kamchilik: yuqori sig'im, barcha shaharlarda mavjud emas, eskalator va platforma cheklovlari.

Shaxsiy avtomobil: Maksimal qulaylik va mustaqillik, yuk tashish imkoniyati. Kamchilik: yuqori xarajat, tirbandlik, ekologik zarar, parkovka muammosi.

Taksi: Qulaylik va tezlikni ta'minlaydi, ammo xarajat yuqori va tirbandlikdan qochib bo'lmaydi.

Transport tanloviga ijtimoiy va iqtisodiy omillar ham ta'sir qiladi. Aholining daromad darajasi, xarajalar va ehtiyojlar transportga bo'lgan talabni belgilaydi (1-rasm). Shuningdek, shahar geografik joylashuvi, infratuzilma, yashash hududi va demografik tarkib ham muhimdir.

Shahar aholisi transport turini tanlashni modellashtirish. Urbanizatsiya sharoitida aholining transport tanlovi turli omillar bilan belgilanadi. Bu jarayonni logit modeli orqali matematik tarzda ifodalash mumkin:

$$P_{ni} = \frac{e^{V_{ni}}}{\sum_{j=1}^J e^{V_{nj}}}$$

P_{ni} - n- shaxs tomonidan i-variant transport tanlash ehtimoli

V_{ni} - n- shaxs uchun i-variant transportning foydasi

J – mavjud transport variantlar soni



1-rasm. Aholining shahar ko'cha yo'llarida harakatlanishi

Xalqaro tajriba va ilg'or misollar. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika shaharlarida avtomobilga qaramlikni kamaytirish, jamoa transportini rivojlantirish va piyodalar hamda velosiped harakatlanishini rag'batlantirish orqali barqaror mobilitetni ta'minlash tajribasi mavjud. Masalan, Kopenhagen va Amsterdam shaharlarida velosiped yo'laklari tarmog'i va markaziy zonalaridagi avtomobil cheklovlari shahar aholisining ekologik transportga bo'lgan talabini oshirgan. Urganch shahrida ham shunga o'xshash chora-tadbirlar orqali shaxsiy avtomobilga qaramlik kamaytirilishi mumkin.

Ma'lumotlarni yig'ish va transport xatti-harakatini o'rganish. Barqaror mobilitetni rivojlantirish uchun shahar aholisi transport xatti-harakatini muntazam o'rganish zarur. Dnevnik usuli, GPS ma'lumotlar, elektron chiplar va mobil operatorlar ma'lumotlaridan foydalanish orqali shahar aholisining transport tanlovi, yo'nalishlar, masofalar va maqsadlar aniqlanishi mumkin. Bu ma'lumotlar shahar rejalashtirish, transport infratuzilmasi rivoji va siyosatni shakllantirishda asosiy vosita bo'ladi.[2]

Xulosa

Barqaror transport tizimini rivojlantirish tavsiyalari: Jamoat transport xizmatini kengaytirish va sifatini oshirish; yo‘l tarmog‘ini qayta rejalashtirish va tirbandlikni kamaytirish; piyodalar va velosipedchilar uchun imkoniyatlarni kengaytirish; shahar markazi va turar joy zonalari orasidagi masofani qisqartirish; shahar aholisi uchun transportni kombinatsiyalash – metro/avtobus/jamoat transporti yoki taksi zaruratga qarab.

Shu yondashuv Urganch shahri uchun barqaror, ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali transport tizimini yaratishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. ШНҚ 2.07.01-23 Аҳоли пунктларининг ҳудудларини ривожлантириш ва қуришни шаҳарсозлик жиҳатидан режалаштириш.
2. Anna Eliza Wolnowska, and Lech Kasyk “Transport Preferences of City Residents in the Context of Urban Mobility and Sustainable Development”
[Transport Preferences of City Residents in the Con.pdf](#)
3. М. Ю. Калмыков, Н. В. Малышев “Проблематика Транспортных Систем”
[perspektivnye-tehnologii-passazhirskih-perevozok-v-usloviyah-urbanizatsii.pdf](#)
4. Dr. Jean-Paul Rodrigue “Urban Transport Challenges”

QURILISH SOHASIDA INVESTITSİYALARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI

F. S. Atadjanova

TAQU katta o‘qtuvchisi

N.B. Allasugirov

TDIU tayanch doktornati

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot uy-joy qurilishi sohasida investitsiyalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatini tahlil qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, davlat mablag‘larining yuqori ulushi va resurs tejamkor texnologiyalarning cheklangan qo‘llanilishi sohada samaradorlikni pasaytirmoqda. Xususiy sektor ishtirokidagi loyihalar esa yuqori rentabellik, qisqaroq qaytish